**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti kengashining 4-sonli yig‘ilishi 2023-yil 29-dekabr kuni o‘tkazildi va unda quyidagi masalalar muhokama etildi:**

1. Professor-o‘qituvchilarga ilmiy unvonlar berish to‘g‘risida.

2. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti muassisligidagi “Arxitektura. Qurilish. Dizayn” ilmiy-amaliy jurnalining yangilangan tahririyat a’zolarini tasdiqlash to‘g‘risida.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrdagi “Ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo‘shimcha haq to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi 1030-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida (qo‘shimcha haq olish huquqiga ega bo‘lgan xodimlarning arizalarini umumlashtirish va kollegial organ yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha ishchi komissiya tarkibini tasdiqlash).

6. Toshkent arxitektura-qurilish universitetida ilmiy-tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchi, erkin izlanuvchi (professor-o‘qituvchi, xodim)larning ilmiy rahbarlarini va doktorlik dissertatsiya mavzularini tasdiqlash to‘g‘risida.

7. Toshkent arxitektura-qurilish universitetining oliy ta’limdan keyingi ta’lim bosqichida tahsil olayotgan tayanch doktorant (PhD), doktorant (DSc), mustaqili izlanuvchilar (PhD va DSc) va stajor-tadqiqotchilarning dissertatsiya mavzulari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish jarayonini monitoringi natijalari to‘g‘risida.

6. Toshkent arxitektura-qurilish universitetining “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri v.b. PhD, dots. D.Sh.Mirdjalilova rahbarligida bajarilgan IL-402104465 “Ko‘chmas mulk bozori turar joy sektorini rivojlantirishga xizmat qiluvchi “Serveying” elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasining yillik yakuniy hisoboti to‘g‘risida.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi “Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-416-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida (adabiyotlar, monografiyalar).

8. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 5-iyunda ro‘yxat raqami 1963-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2009-yil 22-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 160-sonli buyrug‘i ijrosi to‘g‘risida.

9. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti tasarrufidagi Olmaliq arxitektura-qurilish texnikumi Ustavi va tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida.

10. 2022-2023 o‘quv yilida qo‘shimcha qabul qilingan (bahorgi semestr) magistratura mutaxassisliklari 2023-2024 o‘quv yili 2-kurslari uchun ishchi o‘quv rejalari, o‘quv rejalaridagi majburiy fanlarining fan dasturlari va ishchi o‘quv rejalaridagi tanlov fanlarining Sillabus (ishchi o‘quv dastur)larini tasdiqlash to‘g‘risida

11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

yig‘ilishining 2023-yil 2-noyabrdagi 114-sonli bayoni 6.3-bandi ijrosi yuzasidan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi texnikumlar direktorlarining hisobotlarini eshitish hamda ta’lim sifatini ta’minlash bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqish to‘g‘risida.